



**“YOSHLAR SIYOSATI VA INNOVATSIYALAR:
YANGI O‘ZBEKISTON KONTEKSTIDA”**

Hakimova Nargiza Feruz qizi

Toshkent davlat transport universiteti

“Tarjima nazariyasi va amaliyoti” yo`nalishi

TNR-5r-24 guruhi 2-bosqich talabasi

hakimovanargiza1234@gmail.com

ANNOTATSIYA: *Maqolada Yangi O‘zbekiston sharoitida yoshlar tafakkuri va faolligining jamiyat islohotlaridagi o‘rni tahlil etiladi. Unda zamonaviy yoshlarning ma’naviy-intellektual salohiyati, tashabbuskorlik va yangilanish ruhi mamlakat taraqqiyotining asosiy omili sifatida yoritiladi. Shuningdek, yoshlar siyosati, ta’lim, innovatsiya, tadbirkorlik va ijtimoiy faollik yo‘nalishlarida amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar misolida “islohotchi yoshlar” fenomenining mazmuni ochib beriladi. Maqola Yangi O‘zbekiston yoshlarining ijtimoiy mas’uliyati, vatanparvarlik tuyg‘usi hamda o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishdagi intilishlarini tahlil qilishga qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *Yangi O‘zbekiston, islohotchi yoshlar, yoshlar siyosati, yangilanish, faollik, ma’naviyat, tashabbuskorlik, taraqqiyot.*

АННОТАЦИЯ: *В статье анализируется роль молодежи Новой Узбекистана в процессе реформ и общественного развития. Освещаются духовно-интеллектуальный потенциал современного поколения, его инициативность и стремление к обновлению как ключевые факторы прогресса страны. На примере изменений в сфере молодежной политики, образования, инноваций, предпринимательства и социальной активности раскрывается феномен «реформаторской молодежи». Исследование направлено на выявление гражданской ответственности, патриотизма и стремления молодежи реализовать собственные возможности.*



Ключевые слова: *Новый Узбекистан, реформаторская молодёжь, молодёжная политика, обновление, активность, духовность, инициативность, развитие.*

ABSTRACT

The article analyzes the role of the youth of New Uzbekistan in the processes of reform and social development. It highlights the spiritual and intellectual potential of the modern generation, their initiative, and their drive for renewal as key factors in the country's progress. Through examples of changes in youth policy, education, innovation, entrepreneurship, and social engagement, the concept of "reformist youth" is explored. The study focuses on the civic responsibility, patriotism, and determination of young people to realize their potential in building a renewed Uzbekistan.

Keywords: *New Uzbekistan, reformist youth, youth policy, renewal, activity, spirituality, initiative, development.*

KIRISH

“Birinci va ikkinchi Renessansni buyuk alloma va mutafakkirlarimiz yaratgan bo‘lsa, bugun tarix navbatni sizlarga bermoqda. Ishonchim komil, sizlar barcha sohalarda mamlakatimiz bayrog‘ini baland ko‘tarishga qodirsiz. Sizlar Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari sifatida yangi tarix yaratadigan oltin avlodsiz!”

Sh.M.Mirziyoyev

Bugun O‘zbekiston barcha sohalarda rivojlanishning yangi bosqichiga qadam qo‘ygan payt. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar o‘zining ijobiy natijasini bermoqda: insonlarning turmush farovonligi oshmoqda, ma‘naviyati, intellektual salohiyati yuksalib bormoqda. Eng muhimi, yurtimizning eng chekka hududlarida ham tub yangilanishlar namoyon bo‘lmoqda; ushbu o‘zgarishlar xalqimiz, xususan, yoshlarimiz tomonidan chin qalb bilan qo‘llab-quvvatlanmoqda. Shu tariqa kelajagimizning baland va mustahkam imorati



barpo etilmoqda. Dunyo miqyosida esa O‘zbekistonning nufuzi tobora oshib bormoqda. Yoshlarimizning faolligi, dunyoqarashi kengaygani sari – islohotlarda faol qatnashishga bo‘lgan munosabati, el-u yurtning bugungi farovon kuniga daxldorlik va kamarbastalik hissi yanada yuksalib bormoqda. Darhaqiqat, O‘zbekiston faol, tashabbuskor yoshlar yurti bo‘lib, mamlakatimiz aholisining qariyb 60 foizidan ortig‘ini yoshlar tashkil etadi. Albatta, bu – davlatimiz zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi, ulkan e’tibor va g‘amxo‘rlikni talab etadi. Shu bois, ertamiz egalari bo‘lmish yoshlarimizning intiluvchan, har tomonlama yetuk, bilimli hamda salohiyatli shaxs sifatida kamol toptirish masalasiga davlatimiz tomonidan o‘ziga xos tarzda, zamonaviy usullar asosida yondashilmoqda; yoshlarning huquq-erkinliklari yanada ta’minlanmoqda, ularning imkoniyat va manfaatlarini himoya qilishda tashkiliy-huquqiy asoslar zamon bilan hamnafas tarzda takomillashtirilmoqda. Taraqqiyotimizning hozirgi bosqichida mamlakatimiz yoshlarining siyosiy-huquqiy madaniyati va ijtimoiy ong darajasining o‘sib borishi, jamiyatni demokratlashtirish va liberallashtirish jarayonlarining jadal rivojlanishi, yosh avlodning ilm-fan, sport sohasida erishayotgan yutuqlari bu sohadagi islohotlarni yangi, yanada yuqori bosqichga ko‘tarishimiz uchun zarur sharoitlarni yuzaga keltirayotgani hech kimga sir emas. Yoshlar jamiyatning eng faol qatlamidir. Yangi O‘zbekistonda ularga bo‘lgan e’tibor, g‘amxo‘rlik yil sayin ko‘payib, imkoniyatlar ko‘lami kengaymoqda. Yoshlarning manfaatlarini ta’minlash, ularning orzu intilishlarini ro‘yobga chiqarish uchun shart-sharoitlarni yaratish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Bugungi kunda bilim olish, zamonaviy kasb-hunar egallash, turli yo‘nalishlarda iqtidorini namoyon etish, tadbirkorlik bilan shug‘ullanish uchun yaratilgan sharoitlar natijasida yoshlar ko‘plab sohalarda yangi marralarni zabt etmoqdalar. Shuningdek, yoshlarni moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlash orqali ularning hayotida tub o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Yurtimizda olib borilayotgan yoshlarga oid siyosat xalqaro miqyosda tan olinib, o‘tgan yili Yoshlar taraqqiyoti indeksiga ko‘ra, O‘zbekiston yoshlar siyosati sohasida eng tez rivojlanayotgan mamlakatlardan biri, deb e’tirof etildi. Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ularni davlat va jamiyat boshqaruviga, muhim



ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal etishga keng jalb etish bo'yicha 60 dan ziyod tashabbuslar xalqaro hamjamiyat tomonidan ma'qullandi. Bu kabi yutuqlar xalqimizning tahsini va xalqaro hamjamiyatning e'tirofini qozonmoqda. Xususan, BMT tomonidan "Yoshlar strategiyasi – 2030" loyihasini namunaviy tarzda amalga oshirish bo'yicha 10 ta mamlakatdan biri sifatida aynan O'zbekiston tanlab olingani har birimizga faxr bag'ishlaydi. O'tgan juda qisqa vaqt mobaynida fidoyilik, shijoat, faollik hamda bunyodkorlik singari ezgu fazilatlar yurtdoshlarimizning ongu shuuriga, kundalik turmush tarziga singdirildi, bugun har bir yosh mamlakatimizni rivojlantirishga, taraqqiy etishga, fuqarolarimizning farovon hayotiga hissa qo'shaman degan ezgu maqsad bilan yashamoqda, mehnat qilmoqda. Bu yangicha ishchanlik kayfiyati barcha muammo va masalalarning mohiyatiga chuqur kirib borish, yoshlar fikrini inobatga olgan holda ijobiy hal etish jarayoni barchaning alohida e'tirofini qozonmoqda. Albatta, hozirgi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan yoshlarga doir davlat siyosati va uning samarali natijalari dunyo hamjamiyatida katta qiziqish uyg'otmoqda. Mamlakatimizda bu borada ilgari surilayotgan tashabbuslar, jumladan, BMTning Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqish, Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar rahbarlarining Yoshlarga murojaati va uni amalga oshirish bo'yicha harakatlar dasturini qabul qilish va amalga oshirish borasidagi takliflar xalqaro miqyosda qo'llab-quvvatlanmoqda. Yosh avlod kelajagi hamisha O'zbekiston davlat siyosatining markazida bo'lgan. Bugun ham yurtimizda yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish, yoshlarning kamoloti va tarbiyasiga ijobiy ta'sir qiluvchi shart-sharoit yaratish uchun barcha sohada keng ko'lamli islohotlar jadallik bilan olib borilmoqda. "Katta-katta davlatlar, dunyoning eng nufuzli kompaniyalari bugun bizga nega ishonmoqda? Nega milliardlab dollar investitsiya kiritmoqda? Bu, albatta, bejiz emas. Chunki, hamkorlarimiz yoshlarimizning ilm-fan, ta'lim, IT, madaniyat, san'at va sportdagi yutuqlarini ko'rib, salohiyatimizga baho bermoqda, ertangi kunimiz poydevori mustahkam ekaniga ishonch hosil qilmoqda". Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2025-yil 30-iyun – Yoshlar kunida ushbu iliq fikrlar orqali yoshlarga bildirgan ishonchi biz yoshlarni kelgusida ham



yaratilajak imkoniyatlardan unumli foydalangan holda bundan-da yaxshiroq natijalarga erishishimiz uchun turtki bo'ladi, desak mubolag'a bo'maydi. O'zbekiston haqiqiy ma'noda yoshlar mamlakati. Bu yurtida ulg'ayotgan yig'it-qizlarning orzulari va o'z oldiga qo'ygan maqsadlari bisyor. Davlat rahbarining tashabbusi va qo'llab-quvvatlashi esa ularga bu maqsadlarni amalga oshirishda ko'mak beradi. Zotan, yurtboshimiz ta'kidlaganidek, "Agar katta avlodning bilimi va tajribasini, uzoqni ko'ra olish fazilatlarini yoshlarimizdagi g'ayrat-shijoati, mardlik va fidoyiligi bilan birlashtira olsak, ko'zlagan marralarga albatta yetamiz".

NATIJA VA MUHOKAMA

Bugungi kunda dunyo aholisining 1/3 qismini yoshlar tashkil etadi. O'zbekistonda esa 18 milliondan ortiq yosh avlod vakillari jamiyatning turli sohalarida faoliyat yuritmoqda. Bu raqamlar biz yashayotgan globallashuv davrida jahon taraqqiyotida ham, mamlakatimiz rivojida ham yoshlar eng muhim va asosiy kuchga aylanib borayotganidan dalolat beradi. BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish 12-avgust – Xalqaro yoshlar kuniga bag'ishlangan murojaatnomasida ta'kidlaganidek, "Insoniyat kelajagi butun dunyo yoshlarining bemisl shiddat-shijoati, orzu va g'oyalari hamda shu ezgu maqsadga munosib hissa qo'shishga qaratilgan astoydil sa'y-harakatlariga bog'liq". Ushbu fikrga qo'shimcha qilib ayta olamizki, insoniyat kelajagi yoshlarga bog'liq bo'lsa, har bir inson kelajagi yoshlik davrida amalga oshirgan sa'y-harakatlariga bog'liq. Inson aynan yoshlik chog'ida jamiyatda o'ziga munosib o'rinni topishga intiladi. Mehnat faoliyatini yo'lga qo'yadi, oila quradi, ilm-fan, san'at yoki sport sohalarini bilan jiddiy shug'ullana boshlaydi. Ayni shu pallada unga davlat va jamiyatning qo'llab-quvvatlovi har qachongidan ham ko'proq zarur bo'ladi. Chunki, insonning yoshlik davrida amalga oshirgan tanlovlari uning taqdiriga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Yoshlik – kishi umrining bahori. Bahorda ekilgan urug' to'g'ri parvarish qilinsa, zaminda mustahkam ildiz otib, mo'l hosil beradi. Bahor o'tgach, yerga qadalgan urug'dan qanday hosil kutish mumkin?

Bugungi kunda yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning huquqlarini himoya qilish, yosh avlod vakillari o'z iste'dod va qobiliyatini namoyon etishi uchun sharoit



yaratishga qaratilgan ko‘plab xalqaro hujjatlar, strategiya va “yo‘l xaritalari” mavjud. So‘nggi yillarda mamlakatimiz – Yangi O‘zbekistonda yoshlarga munosabat butunlay o‘zgardi. Yoshlarga oid davlat siyosati asosida yosh avlodning hayotiy manfaatlarini ta‘minlash, ularning ezgu orzu-intilishlari, qobiliyat va iste‘dodini ro‘yobga chiqarishga qaratilgan islohotlar izchil va samarali amalga oshirilmoqda. Respublikada yoshlarga oid davlat siyosatining huquqiy asoslarini mustahkamlash maqsadida 2017 – 2021-yillarda 50 dan ortiq qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilindi, 30-iyun – “Yoshlar kuni” deb e‘lon qilindi. Mamlakatimizda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy islohotlar natijasida taraqqiyotning mutlaqo yangi bosqichiga qadam qo‘yildi. Yoshlarga oid davlat siyosati doirasida ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlarni tizimli ravishda amalga oshiruvchi davlat boshqaruv organi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi tashkil etildi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatida Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasi, Oliy Majlis Senati qoshida 100 nafar va Qonunchilik palatasi qoshida 250 nafar faol va tashabbuskor yoshlardan iborat “Yoshlar parlament”lari, Qonunchilik palatasida Yoshlar masalalari bo‘yicha komissiya tashkil qilindi. Albatta, amalga oshirilayotgan ishlar hamda islohotlar yoshlarning yangidan-yangi cho‘qqilarni zabt etishiga, ularning mamlakatimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shishiga asos bo‘lmoqda. Jamiyatning barqaror rivojlanishi ko‘p jihatdan yosh avlodning ma‘naviy yetukligiga bog‘liq. Yoshlarning axloqiy qarashlari, hayotiy tamoyillari va ijtimoiy faolligi davlat taraqqiyotida muhim rol o‘ynaydi. Ma‘naviy qiyofaning shakllanishi murakkab jarayon bo‘lib, bunda ijtimoiy muhit hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasida yoshlarning ma‘naviyatini yuksaltirishga qaratilgan davlat siyosati uzviylik tamoyili asosida amalga oshirilib, ularning intellektual va axloqiy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan huquqiy-me‘yoriy hujjatlar tizimi yaratilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga ma‘naviy hamda madaniy jihatdan yuksalish uchun zarur shart-sharoitlarni ta‘minlashga qaratilgan. Davlat tomonidan ta‘lim, san‘at va ommaviy axborot



vositalari orqali ma'naviyatni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Prezidentning 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli qarori esa xorijiy tillarni o'qitish tizimini rivojlantirish orqali yoshlarning ilmiy-intellektual salohiyatini oshirish, ularni xalqaro axborot oqimlariga integratsiya qilish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi yoshlarning ma'naviy va axloqiy qiyofasini shakllantirishda ta'lim tizimi, madaniyat va san'atning o'rni, jamoatchilik nazorati va oilaning ahamiyatini oshirishga qaratilgan kompleks yondashuvni o'z ichiga oladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2017-yil 5-iyuldagi PF-5106-sonli "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston Yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 28-iyuldagi PQ-3160-sonli «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida", 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-sonli "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-sonli "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari va sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga oid qarashlar metodologik manba bo'lib belgilandi. Ushbu strategik hujjatlar yoshlarning axloqiy yetukligini ta'minlash va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda ma'naviy omillarning hal qiluvchi rolini yana bir bor tasdiqlaydi. Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan besh muhim tashabbusni targ'ib qilish va ro'yobga chiqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur g'oyani amalga oshirish maqsadida O'zbekiston yoshlar ittifoqi qoshida "5 tashabbus loyiha ofisi" faoliyati yo'lga qo'yildi. Tegishli loyihalar, jumladan, "Sport karvoni", "Bir million dasturchi", "Eng yaxshi kitobxon



oila” kabi loyihalar amalga oshirilmoqda. Turli sohalarda samarali faoliyat yuritayotgan, yuqori natijalarga erishib, tengdoshlariga oʻrnak boʻlayotgan yigit-qizlarni ragʻbatlantirish maqsadida “Mard oʻgʻlon” davlat mukofoti va “Kelajak bunyodkori” medali taʼsis etildi. Bundan tashqari, yoshlarning chuqur bilim olishini taʼminlash maqsadida oʻtgan yillarda yuzlab ixtisoslashgan maktablar tashkil etildi. Har bir hududda Prezident maktablarining tashkil etilishi ham iqtidorli va barkamol yoshlarni tarbiyalashga xizmat qilmoqda. Ikkinchidan, yoshlarning oliy taʼlimga qamrovi oshirildi. Shu bilan bir qatorda xalqaro talablarga javob beradigan kadrlarni tayyorlashga eʼtibor qaratilmoqda. Yoshlarimizni nufuzli xorijiy oliy taʼlim muassasalarida taʼlim olish va ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib borishini taʼminlash maqsadida “El-yurt umidi” jamgʻarmasi tuzilib, xorijda bakalavriat, magistratura va doktoranturada oʻqish uchun stipendiyalar ajratildi. Dunyoning eng nufuzli universitet va ilmiy markazlarida taʼlim olgan, innovatsion kompaniyalarida stajirovka oʻtagan yetuk bilim va malakaga ega boʻlgan, oʻz Vatani ravnaqi yoʻlida tinimsiz mehnat qilishga tayyor kadrlarni xorijda tayyorlash albatta mamlakat rivojiga ijobiy taʼsir koʻrsatadi. Mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy faolligini oshirish, jamiyatda ularning rolini mustahkamlash hamda gender tenglikni taʼminlash borasida izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, Oʻzbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida xotin-qizlarning taʼlim olishlari uchun keng shart-sharoitlar yaratish hamda ularni ilm-fanga faol jalb etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. 2022-2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish boʻyicha milliy dasturda qurilish, transport, kommunal, qishloq xoʻjaligi va xizmat koʻrsatish sohalaridagi kollej va texnikumlarda kasb (mutaxassislik) egallash istagida boʻlgan xotin-qizlarning toʻliq davlat granti asosida taʼlim olishlari belgilandi. Mamlakat taraqqiyotining yangi davrida yoshlarning huquq va manfaatlarini taʼminlash, ularning bilim olishi, mehnat qilishi, oʻz qobiliyat va isteʼdodini roʻyobga chiqarishi uchun barcha sharoitlarni yaratish davlat siyosati darajasiga koʻtarildi. Muhimi, yoshlarga berilayotgan eʼtibor, ularga davlat tomonidan koʻrsatilayotgan gʻamxoʻrlik miqyosi yildan-yilga kengayib bormoqda. Ayniqsa, Bosh qomusimizda



yosh avlodning huquq va manfaatlari aniq moddalar bilan muhrlab qo'yilgani, hech shubhasiz, bu boradagi huquqiy bazani yanada kengaytirish, amaliy ishlarimizni yangi bosqichga ko'tarish imkonini bermoqda. Yangilangan Konstitutsiyamizda yoshlarning ta'lim olishi, ijtimoiy va tibbiy himoyasi, uy-joyli bo'lishi, bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish davlatning konstitutsiyaviy majburiyati sifatida belgilandi. Muhim o'zgarishlardan yana biri o'qishga kirishda imkoniyati cheklangan yoshlar uchun grantlar ajratilganidir. Eng muhimi, o'tgan yildan boshlab davlatimiz xalqaro va nodavlat oliy ta'lim muassasalariga grant berishni boshladi. Bilimi bor, ammo moddiy taraflama qiynalgan yoshlar uchun bu katta imkoniyat eshigidir.

XULOSA

Yoshlar – har qanday jamiyatning ertasi. Ular tom ma'noda, O'zbekistonning eng katta boyligi, bebaho xazinasini hisoblanadi. Yangi O'zbekiston yoshlari – kelajagimiz va istiqbolimiz poydevoridir. Bir so'z bilan aytganda, bugungi kunda yurtimizda yoshlarning barkamol shaxs bo'lib voyaga uchun yetishi uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Zero, yoshlar davlatimizning eng katta boyligi, bebaho xazinasidir. Prezidentimizning “Sizlarning har bir yutug'ingiz – butun xalqimizning yutug'idir. Azm-u shijoatingiz, sog'lom dunyoqarashingiz, baxtu iqbolingiz – millionlab ota-onalar, ustoz-murabbiylar, yaqinlaringizning ham baxtu saodatidir”, deya ishonch bildirishlarining o'ziyoq har bir yoshni yaratilgan imkoniyatlardan unumli foydalanishga chorlaydi.

REFERENCES

1. <http://lex.uz/docs/-3026246>

Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida

2. <https://lex.uz/mact/-3107036>

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida

3. <http://lex.uz/docs/-5841063>

2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida



4. <https://president.uz/oz/lists/view/8278>

5. <http://lex.uz/docs/-5234746>

O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida

6. <http://lex.uz/docs/-6623316>

Kollej va texnikumlarda kasb (mutaxassislik) egallash istagida bo'lgan xotin-qizlarni yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida

7. <https://yuz.uz/uz/news/yangi-ozbekiston--yoshlarga-yangi-imkoniyatlar>

8. <https://xs.uz/uz/post/yangi-ozbekiston-yoshlari-kelazhagimiz-va-istiqbolimiz-pojdevori>

9. <https://yuz.uz/uz/news/yangi-ozbekistonning-yangicha-fikrlaydigan-yoshlari>